

**O'zbekiston Yoshlar ittifoqining
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
boshlang'ich tashkiloti
hisobot-saylov yig'ilishi
BAYONI № 01**

2025 yil « 25» sentabr

Chirchiq shahri

Raislik : *Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar fakulteti*
qiluvchi *yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Narmanov*
Alisher

Kotib : *Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti*
yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Ismoilova
Dilafruz

Qatnashchilar : *Chirchiq davlat pedagogika universiteti ma'naviy ma'rifiy*
ishlar bo'lim boshlig'i J.M.Yursinboyev, Yoshlar bilan
ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari, universitet yoshlar
ittifoqi kengashi a'zolari hamda delegatlar (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

- 1. Boshlang'ich tashkilot tomonidan o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlarini baholash to'g'risida.**
- 2. Boshlang'ich tashkilot yetakchisini saylash to'g'risida.**
- 3. Boshlang'ich tashkilot faoliyatining 2025-2026 yillardagi ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida.**
- 4. Boshqa masalalar.**

Hisobot-saylov yig'ilishida 120 nafar delegatdan 120 nafari ishtirok etdi.
Yig'ilishni ochish taklifi bildirildi va delegatlar tomonidan ma'qullandi.

Yig'ilishning belgilangan tartib-qoidalar asosida o'ishini nazorat qilish maqsadida 2 kishidan iborat tarkibda yig'ilish hay'ati shakllantirildi. Uning tarkibiga Chirchiq davlat pedagogika universiteti Aniq fanlar fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Narmanov Alisher saylandi.

Shuningdek, 1 kishidan iborat tarkibda yig'ilish kotibiyati shakllantirildi hamda uning tarkibiga Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari D.M.Ismailova saylandi.

Yig'ilish hisob guruhi 2 kishidan iborat tarkibda shakllantirildi va uning tarkibiga Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari Narmanov Alisher, D.M.Ismailova saylandi. Hisobot-saylov yig'ilishida asosiy ma'ruzalar uchun 15 daqiqagacha,

mukozaralar uchun 3-5 daqiqagacha vaqt berilishi taklifi bildirildi va delegatlar tomonidan ma'qullandi. Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan O'zbekiston yoshlar itifogining Chirchiq davlat pedagogika universiteti boshlang'ich tashkilot yetakchisi Ochilov Ulug'bekning hisoboti eshitildi. Hisobot yuzasidan muzokarada Chirchiq davlat pedagogika Aniq fanlar fakiteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari so'zga chiqdi. Ular boshlang'ich tashkilot tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan bir gatorada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar, jumladan, yoshlar muammolarini o'rganishga qaratilgan so'rovlar, ta'lim muassasasi hududida o'rganish va reydlar o'tkazish, ilmiy kengash yig'ilishlariga masalalar olib chiqishga e'tibor qaratishni ta'kidlab o'tishdi. Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Boshlang'ich tashkilot Yoshlar yetakchiligiga nomzodalar universitet yoshlaridan 1-ilovada keltirilgan nomzodlar nomzodi taklif etildi hamda delegatlar tomonidan saylandi. Shundan so'ng boshlang'ich tashkilot yetakchiligiga nomzodlar Xaliljonova Nasiba Baxtiyor qizi, Asomov Behzod Dilshod og'li va Xoligov Jasur Bahromovich o'z saylov oldi dasturlari bilan tanishtirib o'tishdi. Delegatlar tomonidan yopiq ovoz berish yo'li orqali nomzodlar ovozga qo'yildi. Ovoz berish natijalariga ko'ra Asomov Behzod Dilshod og'li 12ta ovoz, Xoligov Jasur Bahromovich 44ta ovoz, Xaliljonova Nasiba Baxtiyor qizi 64ta ovoz qo'lga kiritishdi. Eng ko'p ovozni qo'lga kiritgan boshlang'ich tashkilot yetakchiligiga saylandi.

Kun tartibidagi uchinchi masala yuzasidan boshlang'ich tashkilot yetakchisi axborot berib o'rdi. Boshlang'ich tashkilot faoliyatining 2025-2026 o'quv yilidagi ustuvor masalalari (ish rejasi) ovozga qo'yilib, delegatlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Yig'ilish kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILLADI:

1. Boshlang'ich tashkilot yetakchisi etib Xaliljonova Nasiba Baxtiyor qizi saylansin.
2. Boshlang'ich tashkilot faoliyatining 2025-2026 o'quv yilidagi ustuvor masalalari (ish rejasi) bildirilgan takliflar inobatga olingan holda 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Raislik qiluvchi:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Aniq fanlar fakiteti
yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari:

A.Narmanov



Kotib:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti yoshlar bilan ishlash
bo'yicha dekan o'rinbosari:

D.Ismailova

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining Chirchiq davlat pedagogika universitetidagi
boshlang'ich tashkilot Yetakchiligiga nomzodlar
RO'YXATI**

№	FIO	LAVOZIMI
1.	Xaliljonova Nasiba Baxtiyor qizi	Turizm fakulteti koordinatori
2.	Asomov Behzod Dilshod og'li	Aniq fanlar fakulteti yutori
3.	Xoligov Jasur Bahromovich	Jismoniy madaniyat fakulteti bitiruvchisi

